

# Tong yulduzi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!



N: 44 (67313)  
2020-yil 2-noyabr

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

DILQOAT:  
YANGI  
TANLOV!

«TONG YULDUZI»DA  
«YULDUZ»  
BO'LISHNI XOHLAYSIZMI?



Unda «ZO'R TABASSUM» foto-tanlovida qatnashing.

Quyidagi (99) 586-96-94 raqamga telegram orqali eng sara suratlaringizni yuboring.



Suratlar «Tong yulduzi» gazetasining rasmiy saytida va telegram kanalida berib boriladi.

Shoshiling, vaqt cheklangan. G'oliblar ro'yxati joriy yilning 7-dekabrida e'lon qilinib, faxriy yorliq hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

2021-yil uchun  
«Tong yulduzi»ga obuna boshlandi!

Manzilimiz: Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks: 100 011.

Tel./faks: (0-371) 244-63-08

[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz),

[tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)

[Telegram: t.me/tongyulduz](https://t.me/tongyulduz)



# TALABA BO'LISH BAXTI

*Har bir inson hayotda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishni, o'qishda, mehnat faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishni niyat qiladi. Niyat, maqsad-larga esa, albatta, ilm orqali erishiladi. Zero, donishmandlar bejizga, ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas, deyishmagan. Ta'lim va tarbiyaning asosi esa mактабдан boshlanadi. Biz farzandlarning kamol to-pishimiz, jamiyatda munosib o'rнin egallashimiz, sifatli va mukammal ta'lim olishimiz uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Davlatimiz rah-bari boshchiligidagi bugun yurtimizda ta'lim tizimida katta islohotlar amalga oshirilyapti.*

Men ham puxta bilim olishni maqsad qilganman. Maktabda a'llo baholarga o'qish bilan bir qatorda, sevimli nashrim «Tong yulduzi» gazetasiga maqolalar yuboryapman. Chunki kelajakda jurnalist kasbini egallash orzum bor. Maqolalarim birin-ketin chop etila boshladi. Buvijonimga, meni Toshkentga olib boring, tahririyatdagilar bilan tanishay, deb turib oldim. Ota-onam duosini olib, buvijonim bilan tahririyatga keldik. «Tong yulduzi» ijod-korlari bizni juda iliq kutib olishdi. Jamoaning ahilligiga, har bir xodimning o'ziga nisbatan o'ta talabchanligiga, ishiga mas'uliyat bilan yondashishiga havasim keldi. Men gazetanining Bosh muharriri Feruza opa Adilova, bo'lim muharriri Nodira opa Nazarova bilan samimiy suhbat qurdim. Kelgusidagi rejalarim bilan o'rtoqlashdim. Suhbat asnosida jurnalistlik kasbining sir-asrorlarini anglay boshladim. Ular bilan esdalik uchun suratga ham tushdim. Eng quvonarli, maqolam bilan o'sha sura-

timizni gazetanining navbatdagi sonida chop etishdi. Tahririyat xodimlarining tezkorligiga ham havasim keldi. Bir maqolamga «Jurnalist bo'lmochiman», deb sarlavha qo'ygandim. Bu yil niyatimga yetdim. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy axborot kommunikatsiyasi universiteti talabasi bo'lism baxtiga tuyassar bo'ldim.

Ushbu maqsadimga yetishishimda menga chin ma'noda ustozlik qilgan «Tong yulduzi» gazetasi xodimlarining alohida o'rni bor, deb o'ylayman. Shuningdek, ingliz tili ustozim Abdulazizzon akaning qattiqo'lliklari tufayli bilmaganlarimni puxta o'rganishga harakat qildim. Ona tili ustozim Irodaxon opa sababli qizg'in bahslar olib bordik, bir-biridan murakkab, qiziqarli savollarga javob topib, birlgilikda bilimimizni mustahkamladik.

Mana shunday intilish, ilm ortidan hamma-mizning eng oliy maqsadimiz ro'yobga chiqdi. Ya'ni, O'zbekistonimning baxtli talabalaridan



biriga aylandim.

Bizga ta'lim-tarbiya, saboq bergan bar-chaga ustozlarimga o'z minnatdorchiligidagi bildirmoqchiman. Tengdoshlarimga, intilging, harakat qiling, albatta, o'z maqsadlaringizga erishasiz, demoqchiman.

**Yoqutxon SODIQJONOVA,**  
**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy**  
**axborot kommunikatsiyasi universiteti**  
**talabasi**

*Yaqinda bir xushxabar eshitdim. O'quvchim Sabina A'zamjonova Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi delegatsiyasi hamda BMT taraqqiyoti dasturi bilan hamkorlikda uyushtirilgan «Oilam uchun davlat xizmatlari» bolalar rasmlari milliy tanlovida g'olib bo'libdi. Maktabimizda tanlov tashkilotchilari tomonidan yig'ilish o'tkazilib, Sabinaga noutbuk va kitoblar jamlanmasi tantanali ravishda topshirildi.*

# SABINANING SOVG'ASI INF KUTUBXONASINI BOYITDI

– Bu biz uchun juda katta xush-xabar bo'ldi, – dedi maktabimiz rahbari Ziroatxon Abdurahmonova. – Sabinaxon o'zining iqtidori

va salohiyati bilan yuzlab teng-doshlari orasida g'olib deb topildi. Uning chizgan rasmlari nafaqat tengdoshlari, balki katta yoshda-

gi tomoshabinlar tomonidan ham e'tirof etiladi. O'quvchilarimizga bolalikdanoq davlat xizmatlariga oid bilimlarini boyitish, burch va mas'uliyatlarni anglash imkonini beradi. Bu yutuqlarini boshlanishi deb umid qilamiz. Ushbu sinfdagi iqtidori

o'quvchilar sonining ortib bora-yotgani ustozning har bir shogirdiga alohida e'tibor qaratayotgani samarasi, deb bilaman.

– «Oilam uchun davlat xizmatlari» nomli chizgan rasmim bilan tanlovda qatnashishimga dadam sababchi bo'ldilar, – deydi Sabina. – Chizgan rasmlarimni ko'rib, sen ham shu tanlovda qatnashib ko'r-chi, dedilar. G'olib bo'lganimdan hammamiz – otanonam, akam, singlim ham juda xursand bo'ldik. Menga sovg'a qilingan kitoblar jamlanmasini sinfimiz kutubxonasiga hadya qilganimda, sinfdoshlarim yangi badiiy kitoblarni o'qir ekanmiz-da,

deb quvondilar. Noutbukni puxta o'rganib olgach, albatta, undan unumli foydalanishni boshqa sinfdoshlarimga ham o'rgatish niyatim bor. Sinfdoslarimning ham turli tanlovda qatnashishlarini istab qolaman. Mutolaani sevadigan, ilmiga chanqoq, tengdoshlari qo'lg'a kiritayotgan muvaffaqiyatlarga havas qiladigan o'quvchilarning yutuqlari bardavom bo'lismiga ishonaman.

**Gulnoza TO'YCHIYEVA,**  
**Farg'onan viloyati, Bag'dod tumanidagi 1-umumta'lim**  
**maktabining ona tili va adabiyot o'qituvchisi**



# O'QUVCHIMNI MA KALTAKLA DIM

Umr oqar daryo, deganlaricha bor ekan. Kechagina ustozlarimning ortidan ergashib yurgandim, hozir esa o'zim o'qituvchiman. O'quvchilarimning, ustoz, deb chopqillab kelib, quchoqlab olishidan boshim ko'kka yetadi. Shunday paytlarda bolaligimni eslayman. «4» baho olsam, rosa yig'lardim. O'sha kuni menga hech narsa tatimasi. Ustozlarimdan emas, o'zimdan xafa bo'lardim. Biz shunday edik, past baho olsak, o'qituvchimizdan ranjimasdik, aksincha, yana past baho olmaslik uchun yanayam berilib, uxlamasdan o'qirdik... Hozir esa nafaqat o'quvchi, balki uning ota-onasi ham o'quvchisiga past baho qo'yan o'qituvchidan ranjishadi. «Bolamga nega «2» baho qo'ydingiz? Bu uning ruhiyatiga salbiy ta'sir o'tkazadi, o'qimay qo'yadi-ku», deya iddao qilishadi. Balki hozirgi yoshlarimiz biroz erkaroqmikan-a?! Nima bo'lganda ham ustozlar oldida hamisha bosqigini lozim.



E'tibor berganmisiz, har chorak yakunida o'tkaziladigan majlislarda asosan faol, a'lochi o'quvchilarining ota-onalari qatnashadi, o'zlashtirishi past, sho'x, o'yinqaroq o'quvchilarining ota-onasi esa kelishmaydi. Kelganda ham farzandining ta'lim-tarbiysi haqidagi fikrlarimizga befarqliq bilan qarashadi. Shunda bir usulni tajriba sifatida qo'lladim. Tushgacha 4 soat darsimni o'tdimda, o'zlashtirishi past bo'lgan bolalarni olib qolib ota-onasiga telefon qildirdim va o'qituvchimiz bugun uy vazifasini bajarmaganim uchun meni rosa kaltakladi, deb aytishlarini uqtirdim. Va o'quvchilarim bilan sinf xonasiga kirib, uyg'a berilgan vazifalarni bajarib o'tirdik. Oradan yarim soatlar chamasi fursat o'tar-o'tmas farzandining taqdirdidan ko'ra ko'proq daromad topish qiziqtiradigan, ho-yu havaslari ilinjida yuradigan, ota-onalar majlisiga kelishga ham vaqt ajratolmaydigan ota-onalar bir zumda muktabda paydo bo'lishdi. Direktorning xonasiga kirib, arz-dod qilishibdi, maktabimiz rahbari fig'oni falakka chiqib meni chaqirtidi...

Xullas, jahl bilan sinfimiz eshigini tegudek ochib hayratdan lol qolgan o'qituvchi, ota-onalar karaxt holatda qotib turishardi. Men esa hech gap bo'lmagandek o'quvchilarimni quchoqlagancha kulib turardim. Bo'lgan voqeadan xabar topgan ota-onalar, direktorimiz, o'qituvchilar qah-qah otib kulib yuborishdi. Bu usulim samara bergenidan xursand bo'ldim. Ota-onalarni o'z farzandlari kelajagiga befarq bo'lmaslikka chiqirdim. Ustoz bejizga koyimasligini, ota-ona o'z bolasi oldida mas'uliyatlari bo'lishi lozimligini, yosh nihollarning parvarishi uchun barchamiz birdek javobgar ekanligimizni uqtirdim. Quvonarlisi, o'sha o'quvchilarimning ota-onalari majlislarda muntazam qatnashadigan bo'lishdi. O'zlashtirishi past bo'lgan, sho'x, o'yinqaroq o'quvchilarim esa a'lochilar safidan joy olardi.

Ozoda BERDIYEVA,  
Toshkent shahar, Uchtepa  
tumanidagi 283-umumta'l'm  
muktabining bosqilang'ich sinf  
o'qituvchisi

2-noyabr 2020-yil

3

Lesson 44

Ingliz tilini o'rjanamiz! Let's learn English!

## HOW DO I USE A FACE MASK?



- Wash hands for at least 20 seconds prior to putting on a face mask.


*He who has health has hope; and he who has hope has everything.*

- Place face mask over nose and mouth. Ensure a tight seal with no gaps and secure elastics or straps.

*From the bitterness of disease man learns the sweetness of health.*



- Avoid touching the front of the face mask. If you do, wash hands for at least 20 seconds.



- Remove the face mask without touching the front. Discard in a closed bin. Wash hand again for at least 20 seconds.

*He who has no health has nothing.*

## QUANTIFIERS

Complete each gap with *much, many, some or any*.

- We didn't have \_\_\_\_\_ time to get to the concert.
- I have got \_\_\_\_\_ sweets, but she has got \_\_\_\_\_ in her bag.
- I met \_\_\_\_\_ old friends at the restaurant yesterday.
- Unlike \_\_\_\_\_ of his close friends, Davron had not had \_\_\_\_\_ opportunities in life.
- How \_\_\_\_\_ courses are you taking this semester?
- If we don't sell more clothes, there won't be \_\_\_\_\_ point in keeping this shop open.
- He was \_\_\_\_\_ older than I had at first thought.
- Some days are \_\_\_\_\_ warmer than others around here.
- I did not have \_\_\_\_\_ to do yesterday, because there were not \_\_\_\_\_ new clients to register.
- This tree was planted \_\_\_\_\_ years ago by \_\_\_\_\_ previous owner.



M. FAYZULLAYEV

# AYTGIL, DO'STIM, NIMA QILDIK VATAN UCHUN?!

*Vatanim – jonajon O'zbekistonim! Aziz va muqadas sajdagohim – ona yurtim! Sen ne-ne buyuk zotlar, aziz avliyolar, daholarga beshik bo'lding. Bir jiggargo'shang, dilbanding sifatida senga boshim yerga tekkuncha ta'zim qilaman!*

Mana shunday jannatmonand yurtda orzulari osmon, fidoyi va tanti o'zbek xalqi yashaydi. Millatimizga xos bo'lgan bag'rikenglik, mehr-shafqat, saxovat, yiqilganni



suyash kabi fazilatlar azaldan qon-qonimizga, jism-u jonimizga singgan. Quvonchli kunlarda ham, qayg'uli, sinovli damlarda ham bu yurtning qalbi quyosh odamlari bir-birini qadr-lab, asrab-avaylab, suyab, ko'nglini ko'tarib yashaydi. Bu jihatlar esa xalqimizning bebafo boyligidir.

Aziz yurtdoshim! Mana shunday buyuk yurt koriga yaraylik, xalqimizga har jabhada kamarbasta bo'laylik, chunki biz daholar avlodimiz. Shunday tinch, osoyishta, ajib diyorimizga ko'z tegmasin.

Yurtimiz chiroyiga mahliyo bo'lib, beixtiyor tilimizga Iqbol Mirzoning quyidagi satrlari quyilib keladi:

*Boshing egib ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?!*


**Surayyo JUMAYEVA,**  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
6-umumta'lism maktabi o'qituvchisi

*Inson borki, orzu qiladi, xoh u katta bo'lsin, xoh kichik... Umr bo'yи orzulari sari intiladi, ayrimlar «Orzumga erishdim», deya xursand bo'lsalar, ayrim-larning orzulari armonga aylanadi. Aziz o'quvchilar, bugun biz sizlar bilan orzular haqida so'zlashamiz. Bilamiz, orangizda orzulari sari ildam odimlayot-ganlar bisyor. Quyida ayrim tengdoshlarining orzulari haqida to'xtalishni joiz topdik. Sizlar ham ushbu sahifamiz mehmoni bo'ling va do'stlaringiz bilan ular haqida o'rtoqlashing.*

TAHRIRIYATDAN

## BAXTLI BO'LISH OSONMI?


Bu savol har bir insanni o'ylatadi, albatta. Masalan, ko'pchilik «ha», desa, yana bir guruhdagilar «yo'q», deya javob beradi. Ayrimlar orzu qilma, baribir amalga oshmaydi, deya kishi kayfiyatini tushirib qo'yadi. Yo'q, siz aslo orzu qilishdan to'xtamang. Ularni amalga oshishiga umid qiling, ishoning. Ana shunda siz ham baxtli insonlar safiga kirasisz. Chunki orzu qilishni



bilmaganlar baxtli bo'la olmaydilar. Bunga men o'zim ham guvohman. Bir kuni yangi yil kirishiga sanoqli daqiqalar qolganida, men bir tilak tiladim va uni yangi yilda amalga oshishiga umid qildim. Ana shu orzum amalga oshdi. Siz ham orzu qilishdan to'xtamang va unga, albatta, ishoning.

**Abdulloh  
ABDUMO'MINOV,  
Toshkent shahar,  
Shayxontohur  
tumanidagi  
102-umumta'lism  
maktabining 6-sinf  
o'quvchisi**

## XULOSA CHIQARISH SIZDAN, AZIZ TENGDOSHIM!



Erta tong... Havo ancha salqin. Jamila bilan maktabga kech qolmaslik uchun shoshib ketyapmiz. Kutilmaganda Jamila turgan joyida taqqa to'xtab qoldi. Hayron bo'lib:

– Nima bo'ldi, yursang-chi, darsga kech qolamiz, – deya uni yurishga undadim. U bo'lsa, nimadir yodiga tushdi chog'i, tashvishli ohangda:

– Niqobimni taqibman-u, biroq antisepik vositalaram uyda qolibdi-ku, – dedi.

Agar u hozir uyiga qaytib borsa, maktab-

## KIMGA FOYDA-YU ZARAR?!

ga kech qolishi tayin. Baxtiga ortimizdan mashinasida ishga ketayotgan akasi bizni ko'rib:

– Nega yo'lda turibsizlar? – deb so'radi.

– Antiseptik vositalaram uyda qolibdi, aka, – dedi Jamila ko'zlarini jovdiratib.

– Obbo, hushyorroq bo'lmay-sanmi? Mayli, sen maktabingga boraver. Ustozing tanbeh bersa, meni aytasan, xo'pmi?

– Mayli, aka!

Akasining gapidan keyin Jamila xotirjam tortib, maktabga yo'l oldi.

Sinfga kirdik. Sinf rahbarimiz Jamilaning antisepik vositasi yo'qligini darhol payqadi. Lekin nima ham qila olardi:

– Tekshiruvchilar kelsa, hamma o'quvchilarim xavfsiz ta'limg qoidalariiga yuz foiz amal qilishyapti, deb aytaman. Ammo bu

hol boshqa takrorlanmasin, – deya dakki berdi...

Albatta, bu oddiy holat. Lekin bu oddiy voqeanning oqibati ulkan fofija bilan yakunlanmasligiga kim kafolat bera oladi?!

Nahotki, dunyo xalqlari «COVID – 19» ko'rinnmas yovga qarshi izlanayotgan bir paytda shifokorlar bu kasallik bilan timisiz kurashayotgan, OAV orqali bot-bot takrorlanayotgan: «Jamoat joylarida tibbiy niqob taqishni unutmang, sanitariya, shaxsiy gigiyena qoidalariiga qat'iy rioya qiling, o'zingizni, yaqinlaringizni ehtiyyot qiling», degan so'zlarga befarq bo'lsak?! Bundan kimga foyda-yu kimga zarar?! Xulosa chiqarish sizdan, aziz tengdoshim!

**Odina A'ZAMQULOVA,  
«Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosi,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi  
19-umumta'lism maktabining  
8-sinf o'quvchisi**

**FAQAT  
QIZLAR  
O'QISIN!**

# BIZNING HAM O'Z FIKRIMIZ BOR!

Xitoy faylasufi Konfutsiy «Agar rejangiz bir yillik bo'lsa, sholi eking, o'n yillik bo'lsa, daraxt eking, yuz yillik bo'lsa, bolalaringizga ta'lif bering», degandi. Shu ma'noda mamlakatimiz qizlarini uzlusiz ta'lif tizimiga jalb qilish, jamiyat hayotidagi o'rnnini mustahkamlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida «Yosh tengdoshlar» loyihasi ishlab chiqildi. Zero, yurtimiz qizlari ham butun dunyodagi tengdoshlari kabi erta nikoh, gender stereotiplari, ta'lindagi tengsizlik, ularga nisbatan bo'layotgan zo'ravonliklarga qarshilar. Bu xususda o'zbek qizlarining ham shaxsiy fikrlari bor, qizlar muammolarini haqida gapiradigan gaplari ham bor.

Tengdosh qizlar uchun ilm va tajriba maktabini o'taydigan mazkur loyiha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Samarqand viloyatlarda tashkil etilishiga sabab bu hududlarda erta turmush va qizlarga nisbatan zo'ravonlik holatlarining ko'p uchrashidir.

«Qizlarjon» o'quvchi-qizlar sammiti va «Yosh tengdoshlar» loyihasi ko'plab qizlarimiz duch kelayotgan muammolarga sezilarli darajada samarali yechim bo'ldi. Qoraqalpog'istonlik, samarqandlik hamda toshkentlik qizlar Fransiyaning eng yosh ayol xalq ta'limi vaziri Najjat Bilkasemning bolaligidagi qiyinchiliklar, ranj-u mashaqqatlar nechog'lik og'ir bo'lmasisin, uning g'ururi, irodasini

buka olmaganidek, bizning qizlarimiz ham qiyinchilikdan qo'rqlmaydi.

Ular ham mukammal ta'lif tarafdiri, ilmiy ishlar qilish uchun esa yoshning ahamiyati yo'qligini zamon shiddatidan anglash mumkin. Bugun bizning

raqobatchilarimiz mahallamizdagи dugonamiz Sevinchxon, maktabdagi sinfdoshimiz Gulchehra, ovuldoshimiz Zulfiya emas, jahon miqyosida iqlim muammolariga yechim topayotgan shveysariyalik Greta, Tymberg har bir qiz ta'lif olishi uchun timilsiz harakat qilayotgan pokistonlik Malala, uzum mevasi va kartoshkani chatishtirib, ildizidan kartoshka hosilini va tanasidan uzum yetishtirayotgan yaponiyalik Suna Pak, velosiped g'iladiraklari harakati orqali bug'doydan sifatli un tayyorlash sistemasini yaratgan turkmanistonlik Shulpanoy, ijtimoiy tarmoqlarda o'z mamlakat tilini

rivojlantirish maqsadida foydali bloglar tayyorlayotgan angliyalik Anna emasmi, aslida?! Ayting-chi, siz buni uddalay olmaysizmi? Dugonajonlar, hech bir inson tug'ilboq teran aql sohibi bo'lib qolmaydi. Har bir shaxs ma'lum bir yoshga yetgandan so'ng o'ziga o'zi mas'ul bo'lishni boshlaydi, o'zini o'zi rivojlantiradi, vaqtida biz qizlar ham o'z ustimizda ishlashimiz foydali va samarali bo'lishi esa barchamizga ayon.

Mutaxassislar ta'kidlaganidek,

«Voyaga yetmagan qizlar o'tasida o'zbekona andisha, or-nomus ustun kelib, salomatligi borasida yoxud boshqa masalalarda biror muammo bo'lsa, onasiga, hatto opa-singlisiga ham ayta olmaslik holatlari



ko'p uchraydi. Aksariyat hollarda qizlar o'z sirini tengdoshi, dugonasi bilan bo'lighadi, undan maslahat olishga harakat qiladi. Tabiiyki, o'zi tenggi dugonasidan har doim ham to'g'ri maslahat olavermaydi. Bu esa qizlar orasida ba'zida turli muammolar kelib chiqishiga ham sabab bo'imoqda. Shuning uchun yosh qizlarimiz o'tasida liderlarni tanlab olib, ularning reproduktiv salomatlik borasidagi bilimlarini oshirib, ular orqali targ'ibot ishlari yo'nga qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi», deydi Oliy Majlis Senating Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Dilorom Tashmuhammedova. BMTning aholishunoslik jamg'armasining O'zbekistondagi vakili o'rinnbosari Kamolxon Inomxodjayev o'quvchi-qizlar o'tasida turli salbiy holatlarni oldini olish, o'quvchi-yoshlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlash, sog'lom turmush tarzi va reproduktiv salomatlikni asrash qoidalariiga amal qilishi ni kuchaytirish, gender tenglikni ta'minlashga erishish borasida hamkorlikdagi ishlashni davom ettirish lozimligini ta'kidladi.

*Marjona JO'RAQULOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Qarshi shahridagi 4-umumta'lum  
maktabi o'quvchisi,  
Respublika Yoshlar ittifoqi  
sardori*





Omon MATJON  
(1943–2020-y),  
O'zbekiston  
xalq shoiri

## ONA DEGAN SO'Z

Yulduzlardan sirqilib shabnam,  
Ufq bilan ko'rishganda yer,  
Oftobga kiprigim bilan,  
Ona so'zni yozdim go'yo she'r.  
Amu oqar misoli bulut,  
Ufq bo'lib oqadi Amu,  
Qirg'og'ini etsa ham unut,  
Maysalarni unutmeydi u!  
Har ko'kat, har bargning nomiga,  
U eltadi tog'lardan ta'zim,  
Ona degan so'zning yoniga,  
Chizgim keldi MAYSAning rasmin.  
Kapalak rang, bulbullar ohang,  
Kashfi bilan mast bo'lgan lahma,  
Ona so'zin qavatiga man,  
Yozib qo'ydim BAHOR deb asta...  
Men jo etdim Ona nomiga  
Yerni so'nggi gardigacha to.  
Endi Ona so'zi yoniga  
Dadil yozib qo'yaman: DUNYO!  
Men yulduz deb uni kuylayman,  
U Vatandir, U Arshi a'lo.  
Men unga ming tashbeh o'layman,  
Yetkazurman millionga hatto...  
Yerda, lekin ming-minglab odam,  
Ona nomin bilsa muqaddas.  
Urush degan birgina so'zdan,  
Onalarni saqlay olur bas!

– Zokirjon, dars qilyapsanmi, bolam?!  
– Ha, oyi, dars qilyapman, chalg'itmay  
turinglar!

Aziza opa asta eshikni yopib chiqib ketdi. Zokir esa dars qilish o'rniga sevimli o'yinini o'ynab o'tirardi. Ana, ro'parasida dushman askari turibdi, uni tezda yo'q qilishi kerak, aks holda, dushman uni «o'ldiradi». Zokirjon ketma-ketiga o'quzib, dushmani yer tishlatdi. Ana, endi bo'ldi! O'yinda u g'olib! Qanday yaxshi, nihoyat u g'olib bo'ldi. U mamnun holda o'rniga uzala tushib oldi. Kecha o'qituvchisi bergen uyg'a vazifalarni o'ylab yotarkan, qaniydi shu darslar o'rniga ham o'yinlar tashkil etilsa-yu, mazza qilib o'rtoqlari bilan bellashsa, degan fikr miyasidan yarq etib o'tdi. U xuddi o'zin ichida yurgandek qo'llarini juft qildi-da, shiftga qarab «o'q uzdi».

Shu payt atrof kulrang tusga kirdi. Nuragan devorlar, pana-pastqam uylar...

Qo'qqisdan unga kimdir: «O'rnindan tur!» degan buyruq berdi. Zokirjon o'rnidan arang turdi. Ustidagi robotlarnikiga o'xshash kiyim, boshidagi kattakon shleemi unga xalal berardi. «Qarshingda dushman!» – bu gapdan u qo'rqib ketdi. Qarasa, qarhisida panada turgan askar unga o'q uzishga tayyor turgan edi. «Uni mahv et!»

Zokirjon qo'llaridagi avtomat bilan qarhisida turgan dushman askariga ketma-ket o'q uzdi. U o'ldi. Navbatdagisi keldi, keyin yana bittasi... Buncha ko'p bo'limasa bu askarlar?! Zokirjon barchasini birma-bir «o'ldira» boshladi. Shu payt yana haligi ovoz yangradi: «Vazifang tamom! Endi keyingi topshiriq bor: qarshingdagi uyg'a bostirib kirasan va...».



## SIZ HAMMADAN YAXSHISIZ

Onajonim – mehribonim,  
Siz hammadan eng yaxshisiz.  
Menga atab bor mehringiz,  
Hayotimning naqshisiz.

Qo'lingizda ko'tarib,  
Tanitdingiz olamni.  
Qadrlashni o'rgandim,  
Chopib o'tgan har damni.

Siz borsiz, mudom men borman,  
Siz-la sog'man, omonman.  
Sizdan yiroq ketsam gar,  
Rang-u ro'yi somonman.

Poyingizga gul to'shab,  
Ta'zim aylay, onajon.  
Baxtimizga sog' bo'ling,  
Mehribonim – onajon.

Ruxshona ABRIYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi  
tumanidagi 28-umumta'lim  
mabitining 4-sinf o'quvchisi



Tillo beshigimni tebratgan malak,  
Onam zikridagi baxt iforisan.  
Ilk anglagan so'zim, ilk nurli tilak,  
Ilk qo'shiq, ilk sevgim chertgan torisan.

Qalblarda barhayot Xorazmiy yodi,  
Atoiy nuktasi, Lutfiy bayoti.  
Ulug'bek faryodi, Bobur hayoti,  
O'zbek ko'ksidagi tog' viqorisan.

Rumiy bitiklari qatida ming sir,  
«Devon»laring kimni etmadni asir.  
«Qutadg'u bilig»im – bebaho qasr –  
Oltin g'ishti, marmar poydevorisan.

Sen bor: qadri osmon, boqadi o'zbek,  
Zafar tug'in ko'kka taqadi o'zbek.  
Jahon minbariga chiqadi o'zbek,  
Omad ko'zmunchog'i, baxt tumorisan,  
Ona tilim, millatning g'urur, orisan.

**Tursunoy YO'LDOSHEVA,**  
**Buxoro viloyati, Shofirkon tumanidagi**  
**4-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**



ularni birma-bir yo'q qila boshladi. Avvaliga oshxonada berkinganini, keyin yuvinish xonasidagisini, oxiri televizor tomosha qilib o'tirganini... tamom! Hammasi yo'q bo'ldi. Keyin qo'qqisdan tepe qavatda oyoq tovushlarini eshitdi. Darhol qurolini qayta o'qlab, yuqoriga yugurdi. Dushmanning qaysi xonada ekanligini topish uchun xonalarni birma-bir tekshirib chiqqa boshladi.

Ha, mana u... Xuddi o'zinikiga o'xshash xonada bir dushman askari kompyuterda maxfiy narsalarni jo'natmoqchi bo'lib turibdi.

– To'xta! – dedi Zokirjon bor ovozi bilan qichqirib: – O'giril!!!

Dushman askari asta o'girila boshladi. Ne-gadir uning yuzida niqobi yo'q edi. Zokirjon dushman askarining o'ziga tanish chehra

ekanligini ko'rib, qo'rqib ketdi. Qarhisida uning o'zi turardi! U qurolini asta tushirdi. Nari-beri urinib-surinib pastga tushdi. Pastda «halok bo'lgan»larning barchasi oila a'zolari edi! Ularning niqobini birma-bir ochib qaray boshladi: akasi, singlisi, oyisi! Nahotki?! Nahotki u... o'z oila a'zolarini...

– Oyi! Oyijon, meni kechiring, dars qilish o'rniga kompyuter o'ynaganim uchun... aka-jon, nimalar qilib qo'ydim?!

Shu payt birdan yer silkinib, hammayoq oston-ustin bo'lib ketdi.

– Zokirjon, tur bolam! Yomon tush ko'rding, shekilli, voy bolajonim-a, charchab qoldingmi deyman... – Aziza opa yerda sochilib yotgan kitob-daftarlarni olib, stol ustiga qaytadan terib qo'ydi.

Zokirjon esa ko'zlarini katta-katta ochib, hali-hanuz o'ziga kelolmay o'tirardi. Havo yetishmaganidan tez-tez nafas olardi. Yax-shiyamki, bu tushi ekan... U qattiq qo'rqb ketganidan dars stoli oldida kuymalanayotgan oyisini mahkam quchib oldi.

– Oyijon, meni kechiring, men dars qilish o'rniga kompyuterda o'zin o'ynagandim, endi sira-sira bunday qilmayman!

Aziza opa ham o'g'lini mahkam bag'riga bosdi.

– Yaxshiyamki, buni vaqtida anglabsan! Endi faqat darslaringni tayyorlagin, hech narsaga chalg'ima!

– Xo'p, – dedi Zokirjon va kompyuterini qayta yoqdi. Uning ish stolida turgan o'yinni o'chirib tashladi. O'zin ichidagi askarning sovuq nusxasi ham o'zin bilan birga yo'qlikka singib ketdi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

# QIZIQARLI MA'LUMOTLAR


Mikroskoplar eng mayda zarralarni ko'rishga yordan beradigan asbob hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, insonlarga ko'pgina tabiat

yaratgan mikroskopini om-maga havola etgan.

Tibbiyot sohasi uchun zarur bo'lgan ushbu us-kunaning nomi yunoncha «mikros» – «kichik» va

va ularni 300 marta katta-lashtirib ko'rsatuvchi linza yaratgan. Eng asosiysi, bu asbob yordamida organizmdagi mikroblarni ko'rish imkonini yaratgan.

## IXTIRO MUALLIFI KIM?



sirlarini ochishda yordam beradigan asbobni ixtiro qilish ancha mushkul vazifa edi. Ayrim manbalarga ko'ra, 1590-yilda gollandiyalik ko'zoynak ustasi Xans Yansen va uning o'g'li Zaxariy kattalashtiruvchi oynalar xususiyatini o'rgana turib, ilk mikroskopni yaratgan, deb hisoblanardi. Bu ixtiro muallifligiga Galileo Galilei ham da'vogar bo'lgan. U 1609-yilda

«skopeo» – «qarayman» so'zlaridan olingan. Eng oddiy mikroskop bir yoki ikkita linzalardan tashkil topgan ekan. Ular yordamida ko'z ilg'amas zarralarni ham ko'rish mumkin bo'lgan. Gollandiyalik olim Antoni van Levenguk XVII asrda yaratgan mikroskop ilm-fan sohasida muhim yangilik bo'lgan. Bolalik chog'laridayoq buyumlarni kattalashtiruvchi shishalar-ga jilo berishga qiziqqan

Yillar o'tib, 1931-yilda fan olamida katta o'zgarish yuz berdi. Ya'ni, optik mikroskop o'rnini elektron mikroskoplar egalladi. Ular orqali oddiy mikroskopda ko'rish mumkin bo'lgan narsalardan ming mar-ta kichikroq obyektlarni ham ko'rish imkonini paydo bo'ldi.

*Internet manbalari  
asosida Zuhra  
NISHONOVA tayyorladi*

## BO'SH O'TIRMAK, BOSH QOTIR!


### «O'ZBEKİSTON BO'YLAB» - «D-D» HARFLİ TOPSHIRIQ

**Eniga:** 1. Samarqand viloyati, Oq-daryo tumanidagi 1978-yildan shaharcha maqomini olgan hudud nomi.  
2. Sariosiyo va Uzun tumanlaridan oqib

o'tuvchi soy. 3. Qashqadaryo viloyatidagi 1926-yil tashkil etilgan tuman. 4. Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 1974-yildan shahar maqomi berilgan hudud nomi.

5. Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani markazi, shahar.

*Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV*



## SHE'RİY TOPISHMOQLAR

Maysazor, dala, bog'lar,  
Yozda, kuzda bel bog'lar.  
Qish kunida yechilar –  
Birin-ketin belbog'lar.



U bo'yagan qizil, ko'kka,  
Ursam bormi, sapchir ko'kka.  
Qo'lidan qochar arazlab,  
Ozor berib maysa, ko'kka.

Qora ko'zim ochdingiz,  
Qo'riq yerlar ochdingiz.  
Ilm urug'in sochdingiz,  
Qalb eshigini ochdingiz.



Tomdan balandroq bo'yli,  
Tomdan tushmas yil bo'yli.



## TEZ AYTISHLAR

Qop, qopda oppoq qopqoq,  
Ko'k qopda qo'lbop qo'lqop.

\* \* \*

Oq otga oqqand berdim,  
Ko'p otga ko'kat terdim.

\* \* \*

Eshqobil eshkak  
Eshishga epchil.

Anvar MIRZAZODA

## Gazetamizning navbatdagi mehmoni:

O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning kenja farzandi Madina Yusupova.

Bugungi kunda bank sohasida faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, she'riyatdan ko'ngil uzib ketolmagan Madina opangiz bilan birlilikda bolalikka sayohat qilamiz.

## ESLASHGA ARZIRLI GO'ZAL DAMLARIMIZ KO'-O'-P-P...

– Bolalikni nimaga qiyoslaysiz?

– Bolalikni go'zal ertakka qiyoslagim keladi. Sababi, insonning eng beg'ubor va shodon, bag'ri butun damlari aynan shu davrga to'g'ri keladi.

Mening bolaligim ham go'zal bir ertakdek o'tgan. Dadam rahmatlik bolaligimizni imkon qadar maroqli, mazmunli o'tishiga harakat qilganlar, shirin xotiralarga to'ldirib ketganlar.

– Yoshlikdagi eng esda qolarli xotira?..

– Yoshlik chog'larim bilan bog'liq juda ko'p go'zal xotiralarim bor. Ularning aksariyati dadajonim bilan bog'liq, albatta. Bir voqeal sira yodimdan chiqmaydi.

Qish-qirovli kunlar edi. Dadam ishdan kech qaytdilar. Sovqotgan va charchaganlarini ko'rib ham bolaligimga borib: «Dada, bugun bizni chanada uchirmaysizmi?» dedim. «Albatta, uchiraman qizim, faqat biroz isinib, ovqatlanib olay», deb javob berdilar.

Onamning esa xudbinligimdan jahllari chiqib, dadama qarata: «O'zi charchab keldingiz, kamiga ko'cha sovuq bo'lsa. Buncha malikalardek aytganini qilavermasangiz bolalarni?!» dedilar. Bunga javoban dadam: «Qo'yaver, Nozjon, men dunyordan o'tib ketganimda, farzandlarimning eslashga arzirli go'zal damlari ko'p bo'lsin», dedilar. Shu kuni bizni rosa chanada



uchirdilar, birga qorbo'ron ham o'ynadik. Bu voqeaga 25 yil bo'lgan bo'lsa ham, kechagidek entikib yodga olaman.

– Mehringizni qozongan kitob?..

– Dadam bizga imkon qadar ko'p kitob sovg'a qilishga harakat qillardilar. Hozir ham ota uyimizda minglab kitoblarga to'la kutubxona bor.

Shuncha o'qigan kitoblarim ichida mehrimni qozongan eng birinchisi Tog'ay Murodning «Otamdan qolgan dalalar» asari bo'lgan.

Va, albatta, yoshligimdan eshitib, o'qib katta bo'lganimiz – otamning she'riy kitoblarini doim

ko'z qorachig'iday asrab yuraman, qayta-qayta sevib o'qiyan. Har safar o'qiganimda, yangi-yangi ma'nolarni kashf qilaveraman.

– Vaqtni ortga qaytarishning imkon bo'lganda, bolalikning aynan qaysi pallasiga qaytgan bo'lardingiz?

– Agar bunday imkoniyat berilganida, albatta, otam hayot bo'lgan, bag'rimiz butun davrlarga qaytgan bo'lar edim.

– Bir intervyuda, shoiralikka da'veyim yo'q, ammo she'r yozib turaman, degan ekansiz. Ijoddan to'xtamadingizmi?

– Dadam bir intervyularida «Farzandlarimning shoir bo'lishlarini istamasdim», degan edilar.



Aynan shuning uchun odatda yozganlarimni gulganga tashlardim. Ammo bu ishimdan onam ko'p ranjirdilar. «Meni kuygan jonimga malham-ku she'rlaring», deyaverardilar.

Adabiy muhitda ulg'aydim. Otam shoir, onam shoira, bobom G'aybulloh as-Salom ham katta olim bo'lish bilan bir qatorda, go'zal she'rlar ham bitardilar. Harchand yozmaslikka urinmay, qon bilan kirgani jon bilan chiqadi, shekilli.

Birinchi kitobimni dadamning 60 yilliklariga bag'ishlab chiqargandim, hozir ikkinchi kitobim ham deyarli tayyor.

– «Tong yulduzi» mushtariyliga tilaklaringiz?

– «Tong yulduzi» gazetasining aziz muxlislariga avvalo, mustahkam sog'lik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik tilayman.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarimiz bo'sh vaqtlarida imkon qadar ko'proq kitoblarni va «Tong yulduzi» kabi qiziqrli, mazmundor gazetalarni o'qishlarini istardim.

Gazeta jamoasiga kelajakdag'i ijod va ishlariga omad tilab, e'tibor uchun alohida minnatdorchilik bildiraman.

Husan TURSUNOV  
suhbatlashdi

**BIZNING TELEGRAM RAQAMIMIZ: (94) 645-90-70**

**Tong yulduzi**  
Vatan yaponadir,  
Vatan qitadir!  
www.tongyulduzi.uz

**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqam bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Dilshod KENJAYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV,  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Muhammadsharif FAYZULLAYEV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-sonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
www.tongyulduzi.uz  
e-mail: tongyulduzi1929@mail.uz  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi - 1582  
Buyurtma - V 4392

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqt - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08